

AQLI ZAIF BOLALARNI, SHAXSI VA PSIXIK FAOLIYATINI O`RGANISHGA YO`NALTIRILGAN PSIXOLOGIK YONDASHUV.

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o`qituvchisi
Yoqubaliyeva Dilafro`z Payzidin qizi
Logopediya yo`nalishi 2-bosqich talabasi
Razzaqova Surayyyoxon Xakimjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19421586>

Annotatsiya: Ushbu maqolada **aqli zaif bolalarni shaxs va psixik faoliyatni o`rganishga yo`naltirilgan psixologik yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini** yoritilgan. Aqli zaif bolalarning psixik faoliyati — idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlari, shuningdek, shaxs xususiyatlarini kompleks o`rganish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada individual yondashuvning ahamiyati, psixokorreksion ishlarni tashkil etish hamda aqli zaif bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta`minlashdagi psixologik yondashuvning o`rni ochib berilgan.

Kalit so`zlar: psixikasi buzilgan bolalar, aqli zaif, psixologik yondashuv, psixik faoliyat, shaxs xususiyatlari, emotsional holat, individual yondashuv, psixokorreksiya.

Abstract: This article covers the theoretical and practical aspects of the psychological approach aimed at studying the personality and mental activity of mentally retarded children. The issues of the comprehensive study of the mental activity of mentally retarded children - perception, attention, memory, thinking and speech processes, as well as personality traits are analyzed. The article reveals the importance of an individual approach, the organization of psychocorrectional work, and the role of the psychological approach in ensuring the social adaptation of mentally retarded children.

Keywords: mentally retarded children, mentally retarded, psychological approach, mental activity, personality traits, emotional state, individual approach, psychocorrection.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты психологического подхода к изучению личности и умственной деятельности умственно отсталых детей. Анализируются вопросы комплексного изучения умственной деятельности умственно отсталых детей – процессов восприятия, внимания, памяти, мышления и речи, а также личностных черт. В статье раскрывается важность индивидуального подхода, организации психокоррекционной работы и роль психологического подхода в обеспечении социальной адаптации умственно отсталых детей.

Ключевые слова: умственно отсталые дети, умственная отсталость, психологический подход, умственная деятельность, личностные черты, эмоциональное состояние, индивидуальный подход, психокоррекция.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatilganidek, shaxsning har tomonlama uyg'un kamoloti va o'z qobiliyati hamda malakalarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini, samarali mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning maqsadi va harakatlantiruvchi kuchdir. Bu hujjatlarda komil inson va barkamol shaxs tayyorlash masalalariga alohida urg'u berilgan. Barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning ruhiy jarayonlarining rivojlanishini, ayniqsa imkoniyati cheklangan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy jarayonlari xususiyatlarini bilish defektolog mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. «Psixologiya, — degan edi.(L.S. Vigotskiy)

birinchidan, konkret, amaliy bo‘lib — ta’lim va tarbiya, bolaning rivojlanishi, mehnat faoliyati haqidagi fan bo‘lmog‘i lozim. Faqat shu vazifagina psixologiyani tirik va kerakli fanga aylantirishi mumkin»Nuqsonli bolalar ichida aqli zaif bolalar ruhiyati nisbatan mukammal o‘rganilgan tarmoqdir. Ammo bu tarmoq ham normal bolalar ruhiyatiga nisbatan birmuncha keng, atroflicha o‘rganilmagan. Aqli zaif bolalar ta’lim-tarbiyasi korreksiyasini to‘g‘ri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari haqidagi bilimlar juda zarur.(L.Mo`minova) Aqli zaif bolalar psixologiyasi yosh davrlar psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi.Ruhiy jarayonlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tushunib yetish shaxsning barkamol shakllanishida alohida ahamiyatga ega.Aqli zaif bolalarda idrok jarayonining rivojlanishi me’yorda rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan o‘ziga xos kamchiliklar bilan xarakterlanadi.Aqli zaif bolalarda idrok, odatda, sekin, yetarlicha aniqlanmagan va yuzaki bo‘ladi. Ular predmetni yaxlit holda idrok etishdan ko‘ra, uning ayrim belgilariga e’tibor qaratadilar.Ko‘ruv idrokining hajmi tor bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechta predmetni qamrab olish imkoniyati cheklangan.Ular ranglarni bir-biridan farqlashda adashadilar, rang nomlarini noto‘g‘ri ishlatadilar yoki umuman eslab qola olmaydilar.Aqli zaif bolalarda fazoni idrok etish ham yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Ular rasmning umumiy mazmunini, voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishni va sabab-oqibat munosabatlarini tushunib yetmaydilar. Taktil (teri-tuyish) idrok ham aqli zaif bolalarda yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lishi mumkin. Buyumlarning shakli, og‘irligi, sirt xususiyatlarini aniqlashda xatolar ko‘p uchraydi. Biroq ko‘ruv va taktil idrokni birgalikda rivojlantirish orqali idrok jarayonlarini birmuncha yaxshilash mumkin. To‘g‘ri tashkil etilgan maxsus ta’lim va korreksion ishlar idrok jarayonlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Idrokni rivojlantirish aqli zaif bolalarning bilish faoliyatini, nutqini va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.Aqli zaif bolalarda tafakkur jarayoni sekin, kam mahsuldor va stereotip xarakterga ega bo‘lib, bu holat ularning bilish faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.Tafakkur maqsadga qaratilgan faoliyat sifatida har doim muammoni hal etishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.Ko‘rgazma-obrazli tafakkur aqli zaif bolalarda nisbatan saqlangan bo‘lsa-da, uning rivojlanishi me’yordagi bolalarnikidan past darajada bo‘ladi.Ko‘rgazma-harakatli tafakkur ham aqli zaif bolalarda sust rivojlangan bo‘ladi.Aqli zaif bolalar predmetlar bilan bajariladigan harakatlarni umumlashtira olmaydi, harakat va so‘z o‘rtasidagi bog‘lanish zaif bo‘ladi.Taqqoslash jarayonida ham jiddiy kamchiliklar kuzatiladi. Mavjud bilim va malakalarni yangi vaziyatlarda qo‘llash ularga og‘irlik qiladi. Shu sababli aqli zaif bolalar tafakkurini rivojlantirishda maxsus tashkil etilgan ta’lim, ko‘rgazmali vositalar, bosqichma-bosqich yo‘naltirilgan yordam va amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyatga ega.Aqli zaif bolalarda xotira sog‘lom bolalarnikiga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu holat ularning bilish jarayonlari va umumiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.Aqli zaif bolalar xotirasi hajmining kichikligi, eslab qolishning sekinligi va tez unutishga moyilligi bilan tavsiflanadi.Xotiraning rivojlanishida ko‘rish, eshitish, sezish, harakat kabi turli analizatorlarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida ko‘p analizatorlarga tayangan holda olib borilgan ishlar, ya’ni materialni o‘qish, yozish, ko‘rsatish va amaliy faoliyat orqali mustahkamlash aqli zaif bolalarda uzoq muddatli xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Shu sababli o‘qituvchi turli metod va usullardan foydalanib, bolaning ortiqcha toliqishini oldini olishi lozim.Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar bilan ishlash jarayonida tasavvurni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratiladi, chunki tasavvur va xotira o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Xotira qanchalik rivojlangan bo‘lsa, boshqa bilish jarayonlarining rivoji ham shunchalik samarali kichadi.Aqli zaif bolalarda xotira hajmi cheklangan bo‘lgani sababli o‘qituvchi beriladigan material hajmini bolaning individual imkoniyatlariga moslashtirishi lozim.Aqli zaif bolalar xotirasi rivojlanadi, ammo bu jarayon bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan korreksion ishlar orqali amalga oshirilishi lozim.Aqli zaif o‘quvchilarda diqqatning rivojlanishi sog‘lom bolalarga nisbatan o‘ziga xos

kechadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, mo’ljal olish faoliyati va yangi taassurotlarga ehtiyoj aqli zaif bolalarda ancha zaif bo’ladi. Jumladan, (G.Y.Suxaryovanning) fikricha, oligofren bolalarda sog’lom bolalarga xos bo’lgan atrof-muhitni faol o’rganishga kuchli intilish yetarli darajada shakllanmaydi. Bu holat diqqatning barqaror emasligi va tez so’nishi bilan namoyon bo’ladi. Aqli zaif bolalarda oliy nerv faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari — nerv jarayonlarining sustligi, dominantaning zaifligi va mo’ljal olishning buzilishi — diqqat faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Natijada diqqatning jamlanishi, taqsimlanishi va bir faoliyatdan boshqasiga o’tishi qiyinlashadi. Qiyinchiliklarga duch kelganda esa bunday bolalar muammoni yengishga emas, balki undan qochishga intiladilar. Aqli zaif o’quvchilarda iroda jarayonlarining yetarli rivojlanmaganligi va his-tuyg’ularni intellektual boshqarishning zaifligi tufayli ixtiyoriy diqqatni uzoq vaqt saqlab turish juda mushkuldir. Ta’lim jarayonida diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarini navbatma-navbat faollashtirib borish yaxshi natija beradi. Shuning uchun aqli zaif bolalar diqqatini rivojlantirish shaxsni rivojlantirish bilan uzviy bog’liq bo’lib, bu jarayonda ularning oliy nerv faoliyati tiplari albatta inobatga olinishi lozim. Aqli zaif bolalarda esa nutqning rivojlanishi me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada kechikadi va o’ziga xos buzilishlar bilan namoyon bo’ladi. Bu holat bosh miya po’stlog’ining organik shikastlanishi, psixik jarayonlarning yetarli rivojlanmaganligi hamda fonematik eshitishning buzilishi bilan bog’liqdir. Aqli zaif bolalar odatda kech tilga kiradilar. Ularning birinchi so’zlari 3–5 yoshdan keyin paydo bo’lishi mumkin. Ularning so’z boyligi kam, faol lug’at nafaol lug’atga nisbatan juda kambag’al bo’ladi. Nutqning grammatik tuzilishi ham aqli zaif bolalarda yetarli darajada rivojlanmagan bo’ladi. Aqli zaif bolalarda ichki nutq tashqi nutqqa nisbatan ko’proq shikastlangan bo’ladi. Ichki nutqning rivojlanmaganligi bolaning o’z harakatlarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkoniyatlarini cheklaydi. Nutqning bunday xususiyatlari muloqot jarayonida tushunmovchiliklarga olib keladi va bolaning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Shu sababli aqli zaif bolalar bilan ishlashda maxsus tashkil etilgan ta’lim va korreksion-logopedik mashg’ulotlar muhim ahamiyatga ega. Aqli zaif o’quvchilarda shaxs shakllanishi bir qator o’ziga xos qiyinchiliklar bilan kechadi. Bu holat ularning faolligi, mustaqilligi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Aqli zaif bolalar shaxsiga xos bo’lgan yana bir muhim jihat — shaxsiy sifatlarning disgarmoniyasi, ya’ni nomutanosib rivojlanishidir. Natijada bunday bolalarda tashabbuskorlik past bo’ladi, o’z xatti-harakatlarini boshqarish qiyinlashadi. Aqli zaif bolalar o’rtasidagi shaxslararo munosabatlar ham har xil bo’ladi. Aqli zaif bolalarning shaxsiy munosabatlari, guruhdagi o’rni, rasmiy va norasmiy yetakchilar masalalari (G. Berdiyev) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar aqli zaif va sog’lom bolalar o’rtasidagi farqlarni aniqlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shaxsning individual xususiyatlarini, ijtimoiy muhit va jamoa ta’sirini hisobga olgan holda olib borilgan korreksion-pedagogik ishlar aqli zaif bolalarning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi

Xulosa: aqli zaif bolalarning shaxsiy, emotsional, irodaviy, bilish va faoliyat xususiyatlari o’ziga xos. Ularning rivojlanishi maxsus pedagogik yondashuv, uzluksiz ta’lim va tarbiya, ijtimoiy muhit bilan uyg’unlashtirilgan faoliyat orqali sekin va barqaror shakllanadi. Shu bois, aqli zaif bolalarni tarbiyalashda individual yondashuv, differensirlangan baholash, emotsional rivojlanish va bilish jarayonlarini qo’llab-quvvatlashga yo’naltirilgan metodikalar muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Vygotskiy L.S. Intellekt va emotsiyalar. – M.: Prosveshchenie, 1991. – 304 b.
2. Segen E. Oligofrenopedagogikaning asoslari. – M.: Pedagogika, 1980. – 256 b.
3. Zankov L.V. Aqli zaif bolalarning shaxsiy xususiyatlari. – M.: Nauka, 1963. – 298 b.

4. Berdiev G. Sog‘lom va aqli zaif bolalarning shaxslararo munosabatlari. – Toshkent: Fan, 1995. – 176 b.
5. Pinskiy B.I. Aqli zaif bolalarning baholash faoliyati. – M.: Pedagogika, 1971. – 200 b.
7. Glozman Zh.M. Oligofren bolalarning shaxsiy xususiyatlari. – M.: Pedagogika, 1983. – 208 b.
8. Namazbaeva Zh.I. Aqli zaif bolalarning shaxsiy va shaxslararo munosabatlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 160 b.
9. Kalita N.G. Oligofren bolalarning shaxsiy sifatleri. – M.: Nauka, 1971. – 192 b.
10. Mo‘minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U., Yakubjanova D.B., Djalolova Z.M., Abidova N.Z. 3-45b